
OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IQTISODIY BOSHQARUVNI OPTIMALLASHTIRISH: SAMARADORLIK, INNOVATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



QARSHI SHAHRI
2026-YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IQTISODIY BOSHQARUVNI OPTIMALLASHTIRISH: SAMARADORLIK, INNOVATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2026-yil 13 – 14-mart



QARSHI – 2026

УУК 004.8:338.24
ББК -32.818+65.05 С-95

“**Sun’iy intellekt asosida iqtisodiy boshqaruvni optimallashtirish: samaradorlik, innovatsiya va barqaror rivojlanish**” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2026. – 613 bet.

Mazkur maqolalar to‘plamida jamlangan maqolalar zamonaviy iqtisodiy jarayonlarda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni, iqtisodiy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan. To‘plamda sun’iy intellekt asosida iqtisodiy tahlil, prognozlash, resurslardan samarali foydalanish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish kabi dolzarb yo‘nalishlar yoritilgan. Mualliflar tomonidan iqtisodiyotning turli sohalarida Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, ilg‘or xorijiy tajribalar hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur to‘plam olimlar, mutaxassislar va talabalar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

MAS’UL MUHARRIR
Raxmonov Lochin To‘xtamishovich –
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TAHRIR HAY’ATI

G’ulomov S.S. – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mustafakulov Sh.I. – Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mahmudov N.M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Ibragimov E.Ч. – Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori
Abdullayev O‘.Sh. – Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i
Turgunov A.M. – Osiyo texnologiyalar universiteti professori
Muxiddinov X. S. – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Norqobilova F.A. – Qarshi davlat texnika unversiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abdullayev M.K. – Xalqaro Nordik universiteti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori
Nishonov J.T – Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri
Normamatov X. M. – Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 27-fevral, 02-son bayonnoma)

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2026.

https://asianuniversity.uz/

ZAMONAVIY TA'LIM STANDARTLARIDA BILISH NAZARIYASINING AKS ETISHI

Ibragimov Elyor Xakimovich
Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirishda bilish nazariyasi (epistemologiya) asosiy nazariy-metodologik manba hisoblanadi. Ta'lim standartlari nafaqat o'qitish mazmunini, balki bilimning tabiati, uning hosil bo'lish yo'llari va haqiqat mezonlari haqidagi tasavvurlarni ham o'zida aks ettiradi. A. Magfiroh va M. Nursixinning 2025 yilda chop etilgan tadqiqotida qayd etilishicha, ta'lim epistemologiyasi — ta'limni tushunish uchun falsafiy strategiyadir, u orqali talabalar o'z hayot maqsadlarini aniqlash, anglash va bajarish qobiliyatiga ega bo'ladilar[1].

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimlari raqamli transformatsiya, sun'iy intellektning kirib kelishi, barqaror taraqqiyot maqsadlari va global inqirozlar (iqlim o'zgarishi, dezinformatsiya, madaniy o'zgarishlar) sharoitida tubdan yangilanmoqda. Bu o'zgarishlar ta'lim standartlarida o'z aksini topgan bilish nazariyasi muammolarining qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim standartlaridagi asosiy epistemologik yondashuvlar, ularning tasnifi va amaliy tatbiqi eng so'nggi ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil etiladi.

1. Epistemologiya va uning ta'limdagi o'rni.

Epistemologiya — falsafaning bilish muammolarini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, u bilimning tabiati, manbalari, chegaralari va haqiqat mezonlari haqidagi masalalarni ko'rib chiqadi. Hozirgi pedagogikada epistemologiyaning bir necha asosiy yo'nalishlari ajratiladi: ratsionalizm (bilim — aqldan), empirizm (bilim — tajribadan), konstruktivizm (bilim — faol quriladi), sotsial konstruktivizm (bilim — ijtimoiy jarayonda yaratiladi) va pragmatizm (bilim — amaliyotda oqlanadi).

K.S. Tabernning 2024 yil oktyabrda MDPI nashriyotida chop etilgan "Educational Constructivism" nomli ensiklopedik maqolasida ta'kidlanganidek, zamonaviy ta'lim konstruktivizmi haqiqatning tabiatidan ko'ra bilimning shakllanish jarayoniga e'tibor qaratadi; u talabalar bilimni mavjud interpretatsiya resurslaridan foydalanib o'zlari quradilar

[1]Maghfiroh A., Nursikhin M. Educational Epistemology and Life Values // Journal of Innovative and Creativity. — 2025. — Vol. 5, Issue 2. — P. 2334–2345.

degan qarashga asoslanadi[2]. Bu qarash bugungi oliy ta'lim standartlarining asosiy nazariy zamini hisoblanadi.

2. Konstruktivizm — zamonaviy ta'lim standartlarining asosiy epistemologik asosi. Konstruktivizm J. Piaje, L.S. Vigotskiy, Dj. Bruner va E. fon Glazersfeld kabi olimlarning ishlariga asoslanadi. Uning asosiy tezisi — talaba bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni o'zi faol quraddi. Bu qarash XX–XXI asrlar boshida dunyo ta'lim standartlarining asosiy konseptual zamini bo'lib xizmat qildi.

K.S. Tabernning ta'kidlashicha, konstruktivizm nafaqat o'qitish metodi, balki bilish haqidagi butun epistemologik dunyoqarashdir: u talaba qanday qilib o'z tushunchalarini shakllantirishiga, mavjud tasavvurlar o'qitish samarasiga qanday ta'sir ko'rsatishiga va o'qituvchi ushbu jarayonni qanday yo'naltirishi kerakligiga e'tibor qaratadi. Shuning uchun konstruktivistik standartlarda baholash mezonlari ham o'zgargan: faktlarni eslab qolishdan ko'ra, tushunishni namoyish etish, muammoni hal qilish, yangi holatlarga bilimni ko'chira olish kabi ko'nikmalar asosiy o'lcham bo'ladi.

Konstruktivistik yondashuvni hayotda tatbiq etish muhim muammolar bilan bog'liq. L.K. Nguen va X.V. Lening 2024 yilda "SAGE Open" jurnalida chop etilgan Vetnamdagi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, konstruktivizmning joriy etilishi o'qituvchilarning bu nazariyani qanchalik chuqur tushunishiga bog'liq — ular faqat konstruktivizm tamoyillarini yaxshi o'zlashtirganlaridan keyingina darslarini, baholash va mashg'ulotlarini yetarli darajada o'zgartira oladilar[3]. Tadqiqotchilar bunday xulosaga keldilarki, o'zlarini konstruktivist epistemolog deb hisoblaydigan pedagoglar ham ko'pincha ongsiz ravishda an'anaviy o'qitish uslubiga qaytadilar. Bu holat ta'lim standartlarida epistemologik asoslarni aniq belgilab qo'yish va o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

3. YuNESKOning "To'rt ustun" konsepsiyasi va uning epistemologik asoslari. YuNESKOning J. Delor raisligidagi Xalqaro komissiyasi 1996 yilda "XXI asr uchun ta'lim" hisobotida to'rt asosiy ustun konsepsiyasini taklif etdi: bilishni o'rganish (learning to know), qilishni o'rganish (learning to do), birgalikda yashashni o'rganish (learning to live together), bo'lishni o'rganish (learning to be). Bu konsepsiya bugungi kunda ham jahon ta'lim standartlarining asosiy yo'naltiruvchi modellaridan biri hisoblanadi.

Bu to'rt ustun har birining o'ziga xos epistemologik asosi mavjud: "bilishni o'rganish" — ratsionalistik va konstruktivistik asosda; "qilishni o'rganish" — pragmatik va tajriba-amaliy yondashuv asosida; "birgalikda yashashni o'rganish" — sotsial konstruktivizm va interkultural epistemologiya asosida; "bo'lishni o'rganish" — gumanistik va ekzistensial-

[2]Taber K.S. Educational Constructivism // Encyclopedia of Social Sciences. — MDPI, 2024. — Vol. 4, Issue 4. — Article 100. DOI: 10.3390/encyclopedia4040100. — Published: 12 October 2024.

[3]Nguyen L.Q., Le H.V. Challenges in EFL Constructivist Classrooms From Teachers' Perspectives: A Case Study in Vietnam // SAGE Open. — 2024. — Vol. 14, Issue 2. DOI: 10.1177/21582440241245187.

fenomenologik yondashuv asosida quriladi. Shu tariqa, YuNESKO standartlari bir yo'nalishli emas, balki poliparadigmal epistemologik platformaga ega.

4. Kompetensiyalarga va natijalarga yo'naltirilgan ta'lim

Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (Competency-Based Education — CBE) — XXI asrda dunyoda keng tarqalgan pedagogik modellardan biridir. Uning epistemologik asosi — bilim amalda tasdiqlangan, kuzatiladigan va baholanadigan qobiliyatlar orqali namoyon bo'ladi, degan qarashga asoslanadi. T.O. Gomes va hammualliflarining 2025 yil avgustda "Critical Care Science" jurnalida chop etilgan skoping-tahlilida qayd etilishicha, CBE modelidagi asosiy konseptual rivojlanish ko'nikmalar ro'yxatidan boshlanib, keyinchalik asosiy kompetensiyalar, milya toshlari (milestones) va ishonchli kasbiy faoliyatlar (entrustable professional activities) kabi tushunchalarga evolyusiya qildi[4].

Bu evolyusiya epistemologik nuqtai nazardan juda muhimdir: u bilimni statik mazmundan ko'ra dinamik amaliy-ko'nikma sifatida tushunishga o'tishni anglatadi. Shuningdek, mualliflar ta'kidlashlaricha, CBE standartlarida geterogenlik mavjud bo'lib, bu turli mamlakatlar ta'lim tizimlarining o'ziga xos epistemologik yondashuvlaridan kelib chiqadi.

Natijalarga yo'naltirilgan ta'lim (Outcome-Based Education — OBE) CBE bilan yaqin bog'liq bo'lsa-da, epistemologik jihatdan farq qiladi. Agar CBE bilimni talaba ega bo'lishi kerak bo'lgan qobiliyatlar orqali aniqlasa, OBE — ta'lim jarayonining o'zi samaradorligi va aniq o'lchanadigan natijalarga e'tibor qaratadi. Ikkala model ham ob'ektivistik-bixevioristik epistemologiyaga moyil, chunki bilim kodlashtirilishi, takrorlanishi va testlanishi mumkin, deb hisoblaydi. Bu holat esa konstruktivistik yondashuvga ayrim jihatlardan zid kelib qolishi mumkin — shu sababli hozirgi ta'lim standartlarida turli paradigmalar sintezi uchun doimiy munozaralar olib borilmoqda.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida sun'iy intellekt (SI), katta til modellari (LLM) va generativ SIning ta'limga kirib kelishi bilish nazariyasiga oid jiddiy savollarni ko'ndalang qo'ydi: agar talaba ChatGPT kabi vositalardan foydalanib haqiqat-shuubha ishlab chiqsa, bilimning muallifi kim? Bilim qanday qilib baholanadi? Bilish jarayoni kimning ishtirokida sodir bo'ladi?

I. Levin, A.L. Semyonov va M. Gorskiyning 2025 yil yanvarda "Education Sciences" jurnalida chop etilgan tadqiqotida ta'kidlanishicha, generativ SI davrida konstruksionizm (S. Papert nazariyasi) — nafaqat konstruktivizmning bir turi, balki gumanitar fanlarda SIdan foydalanish davrida ham eng istiqbolli ta'lim falsafasidir[5]. Konstruksionizm farzi shunga asoslanadiki, talaba bilimni o'zi yaratgan mahsulot (artefakt) orqali shakllantiradi; SI esa bu

[4]Gomes T.O., Girão F.B., Silva M.H., Andrade M.V.M. Competency-based education in intensive care multiprofessional training: a scoping review // Critical Care Science. — 2025. — Vol. 37. DOI: 10.62675/2965-2774.20250385. — Published: 27 August 2025.

[5]Levin I., Semenov A.L., Gorsky M. Smart Learning in the 21st Century: Advancing Constructionism Across Three Digital Epochs // Education Sciences. — 2025. — Vol. 15, Issue 1. — Article 45. DOI: 10.3390/educsci15010045.

jarayonda nafaqat vosita, balki hammuallifga aylanadi. Shu tarzda zamonaviy ta'lim standartlari yangi — "inson-SI-bilim" uchlik munosabatini o'z ichiga oladi.

6. Epistemologik dekolonizatsiya va madaniy xilma-xillik.

Zamonaviy ta'lim standartlari oldida turgan muhim muammolardan biri — epistemologik dekolonizatsiya masalasidir. B.I. Omodanning 2025 yilda "Globalisation, Societies and Education" jurnalida chop etilgan tadqiqotida qayd etilishicha, hozirgi universitetlarda G'arb bilim tizimlarining gegemon ustunligi muqobil va mahalliy bilim paradigmalarining istisnoga uchrashiga olib kelmoqda; shuning uchun universitet ta'limida epistemologiya va dekoloniallik munosabatini qayta baholash tarixiy zaruriyat hisoblanadi[6].

Bu masala O'zbekiston singari boy madaniy-ma'naviy merosga ega bo'lgan mamlakatlar uchun ayniqsa dolzarb. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bedil kabi allomalarning bilish nazariyasi merosini zamonaviy ta'lim standartlariga integratsiya qilish — nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki global epistemologik muhitni xilma-xillashtirish masalasidir. S. Shermuhamedov, A. Ochildiev va I. Rahimovning 2023 yil darsligida qayd etilishicha, o'zbek ta'lim tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishi G'arb epistemologiyasi yutuqlarini milliy-ma'naviy merosimiz bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim[7].

7. Zamonaviy ta'lim standartlaridagi yangi epistemologik muammolar.

Bugungi kunda ta'lim standartlari yangi — iqlim o'zgarishi, ekologik ta'lim va barqaror taraqqiyot singari masalalar bilan to'qnashmoqda. E. Eylamning 2025 yil "ECNU Review of Education" jurnalida chop etilgan maqolasida ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishi ta'limida (CC education) epistemologik yondashuvlarni ishlab chiqish — na nafaqat fan mazmunini, balki uni turli madaniy kontekstlarda taqdim etish uslubini ham belgilashni talab qiladi; mahalliy xalqlarning iqlim haqidagi bilimlari ham G'arb ilmiy paradigmalari bilan teng huquqli tarzda taqdim etilishi lozim[8].

Bu qarash zamonaviy ta'lim standartlarining yana bir muhim xususiyatini ochib beradi: ular endilikda faqat "o'rganish mazmunini" emas, balki "o'rganish yo'llarini" ham belgilashga intilmoqda. Bu — konstruktivizm, pragmatizm, gumanizm va dekolonial epistemologiya elementlarini birlashtirgan murakkab poliparadigmal tizimdir. Bunday tizimning muvaffaqiyati o'qituvchilarning epistemologik savodxonligiga, talabalarning tanqidiy tafakkuriga va maktab-universitet infratuzilmasining raqamli tayyorgarligiga bog'liq.

[6]Omodan B.I. The roles of epistemology and decoloniality in addressing power dynamics in university education // Globalisation, Societies and Education. — 2025. — Vol. 23, Issue 5. — P. 1226–1240. DOI: 10.1080/14767724.2024.2335661.

[7]Шермуҳамедов С., Очилдиев А., Раҳимов И. Фалсафа: Олий ўқув юртлари учун дарслик. — Янги таҳрир. — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2023. — Б. 156–168.

[8]Eilam E. Interrogating Climate Change Education Epistemology: Identifying Hindrances to Curriculum Development // ECNU Review of Education. — 2025. — Vol. 8, Issue 1. DOI: 10.1177/20965311241240491.

8. O‘zbekiston oliy ta’limida zamonaviy epistemologik yondashuvlar

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun va davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi. Bu hujjatlarda konstruktivistik yondashuv, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim, kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, tanqidiy tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantirish kabi zamonaviy epistemologik tamoyillar aks etgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston oliy ta’limida epistemologik asoslarni mustahkamlash bo‘yicha bir qator muammolar saqlanib qolmoqda: o‘qituvchilarning konstruktivizm va kompetensiyalarga asoslangan yondashuv bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emasligi, baholash tizimining an’anaviy bixevioristik modeldan to‘la ajralmaganligi, o‘quv rejalarida raqamli transformatsiya va SI integratsiyasining cheklanganligi, milliy madaniy-ma’rifiy meros bilan xalqaro standartlarning uyg‘unlashtirilishi masalasi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro tajriba bilan birgalikda milliy maktabning boy epistemologik merosini o‘rganish va ishlab chiqish zarur.

Zamonaviy ta’lim standartlari — bu nafaqat o‘quv materiali majmui, balki o‘z vaqtining asosiy epistemologik qarashlarini aks ettiruvchi murakkab nazariy tizimdir. Bugungi standartlardagi asosiy epistemologik paradigmalar — konstruktivizm, konstruksionizm, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim, YuNESKOning “To‘rt ustun” konsepsiyasi — birgalikda poliparadigmal modelni tashkil etadilar.

Eng so‘nggi tadqiqotlar (Taber 2024, Levin va hammualliflar 2025, Gomes va hammualliflar 2025, Omodan 2025, Eylam 2025, Magfiroh va Nursixin 2025) shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim epistemologiyasi doimiy rivojlanishda: u sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, iqlim o‘zgarishi, madaniy dekolonizatsiya kabi yangi muammolarga javob bermoqda. Bu muammolar bilim muammosini nafaqat nazariy, balki amaliy-siyosiy va axloqiy jihatdan ham ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashish jarayonida zamonaviy epistemologik yondashuvlarni o‘z milliy-madaniy merosi bilan uyg‘unlashtirishni o‘z oldiga muhim vazifa sifatida qo‘yishi lozim. Bu yo‘lda o‘zbek faylasuflari, pedagoglari va metodistlarining hamjihatligi — nafaqat milliy ta’limni yuksaltirish, balki jahon epistemologik diskursiga munosib hissa qo‘shish imkoniyatini ham beradi.

116.	**Barnoyev Anvarjon, Raxmonov Umirzoq**	*O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlarining rivojlanish tendensiyalari va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati*	**564**
117.	**Rasulov Jamshid, Ashurova Durdona**	*THE RISE OF SOCIAL MEDIA AND ONLINE COMMERCE IN UZBEKISTAN AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY.*	**568**
118.	**Normamatov Xayriddin Mengniyevich G‘uzorqulov Sorbek Sodiq o‘g‘li**	*OLIY TA’LIM MUASSASASIDA LMS PLATFORMASI ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODIKASI (TAJRIBA-SINOV ASOSIDA)*	**571**
	6-sho‘ba.Ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalari		
119.	**Ibragimov Elyor Xakimovich**	*ZAMONAVIY TA’LIM STANDARTLARIDA BILISH NAZARIYASINING AKS ETISHI*	**584**
120.	**Jakbarov Odiljon Otamirzayevich**	*ЯПОНИЯ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ АСОСИДА ИЖОДКОРЛИКНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЖОРИЙ ЭТИШ ИМКОНИЯТЛАРИ*	**588**
121.	**Jakbarov Odiljon Otamirzayevich**	*YAPONIYA TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IJODKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI*	**592**
122.	**Shoira Rahimova Adilbekovna Sobirova Bakposhsha Maqsud qizi**	*O‘QUVCHILAR TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA DIAGNOSTIKASI*	**595**
123.	**Bonoyarova Nargiza Ashurovna, Urazmetova Shoira Azadboyevna**	*SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA TALABALARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI: OLIY TA’LIM TIZIMI TALABLARI ASOSIDA*	**599**
124.	**Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna**	*SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI*	**603**
125.	**M.Dadaxanov**	*INFORMATIKA FANI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH*	**608**
126.	**Yaxyayev Sobir Jumakulovich, To‘rayev Diyorbek Shavkat o‘g‘li**	*BULUTLI PLATFORMALAR VA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIMDAGI QO‘LLANILISHI*	**612**
127.	**Boymurodov Adham Xushimqulovich Karimova Mahliyo Anvar qizi**	*SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV PLATFORMALAR ORQALI MATEMATIKA FANINI O’QITISH NATIJADORLIGINI TAHLIL QILISH*	**616**
128.	**Qutlımuratov Yusup Qulbaevich Allamuratov Shaxzod Farxad ulı**	*SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA RADIOTEXNIKA SIGNALLARINI MONITORING QILISHNING AVTOMATLASHGAN TIZIMINI ISHLAB CHIQISH*	**619**
129.	**Ортикова Гузал**	*ФРАЗЕОЛОГИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ*	**623**